

## **AQLI ZAIFLIKNING TURLARI, BELGILARI VA DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI**

*Ilmiy rahbar: Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li*

*Namangan davlat Pedagogika instituti o'qituvchi*

*Karimova Muxtasar Alisher qizi*

*Pedagogika Fakulteti maxsus pedagogika(logopediya) yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada aqli zaiflik tushunchasi, uning chuqurligiga qarab darajalari, kelib chiqish sabablari, alomatlari haqida. Aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni o'rghanish, kasalliklarning sabablari o'rtasidagi farq va davolashdagi farqlar, nerv jarayonlarining buzulishi natijasida bolalardagi xulq-atvorlar va aqliy ojizlikning psixologik mexanizmlarini o'rghanishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Oligofreniya (aqliy norasolik), muammoli vaziyatlar, debillik, imbetsillik, idiotlik, mehnatga o'rghanish (kasbga moslashish), infantilizm, psixopatiya, oligofrenodidaktika, klinik mezon, pedagogik mezon.

**Aqli zaiflik-** bosh miyaning organik jarohatlari natijasida bilish faoliyatining turg'un pasayishi. Aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasi ishlari bilan shug'ullanish boshlanganiga 200 yildan oshdi. Aqli zaif bolalar bilan butun, tugallangan ishlar XX-asr boshlariga to'g'ri keladi. “Aqli zaif” atamasini birinchi marta fanga J.Eskirol tomonidan kiritildi.[2,8] “Aqlan zaiflik”-bu yig'ma tushuncha bo'lib, aqliy jihatdan qoloqlikning sodir bo'lgan vaqtin, boshidan kechirilgan kasallikning xarakteri, patalogik o'zgarishlarning o'tishi, darajasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'zda tutadi. Aqliy qoloqlikni belgilashda klinik, psixologik, va pedagogik mezonlarni tafovut qilish kerak. Klinik mezon- aqliy qoloqlik va bu markaziy nerv sistemasining qanday organik kasalliklariga aloqadorligini, psixologik mezon-bilish faoliyatining turg'un buzilganligini ifodalaydi. Pedagogik mezon esa o'zlashtirish qobiliyati past bo'lib, bolaning dastur materiallarini o'zlashtira olmasligini ifodalaydi.[2.10]

Aqliy zaiflik tuzilishiga ko'ra: oligofreniya va demensiya bo'linadi. Oligofreniya bu bola markaziy nerv sistemasining ona qornidaligi davrida, tug'ilish davrida va tug'ilgandan to'uch yoshgacha bo'lgan davr ichida shikastlanishi, kasallanishi natijasida kelib chiqadi. Agarda, turli sabablarga ko'ra, aqlan zaiflik bolaning uch yoshidan keyingi davrida paydo bo'lsa, buni endi orrtirilgan aqliy zaiflik-demensiya deb yuritiladi. Demensiya progressiv ya'ni tabiatan kuchayib boradigan kasallik. Oligofreniyada esa nuqsonning kuchayib borishi kuzatilmaydi. Yana, ayollarga nisbatan erkaklar orasida ko'proq uchraydi.[1.30] Kelib chiqish sabablariga

ko’ra oligofreniya tug’ma hamda orttirilgan bo’lishi mumkin. Ya’ni rezus faktorning to’g’ri kelmasligi, xromosoma kasalliklari, fenilketonuriya va shu kabilar tug’ma oligofreniyaga olib kelishi mumkin. Onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar-og’ir virusli gripp, tif, qizilcha bilan kasallanishi, ona organizmidagi turli parazitlarning homilaga yuqishi, homilaning shikastlanishi, ota-onalarning alkogolizmi ham oligofreniyaga olib kelishi mumkin.[1.31] Oligofreniya bola uch yoshgacha bo’lgan davr ichida turli xil og’ir kasalliklar bilan kasallanishi (meningit, meningoensefalit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi) natijasida ham vujudga keladi. Aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniya uch darajaga ajratiladi: debillik, imbetsillik va idiotlik. [1.31]

**Debillik**-birmuncha yengil daraja bo’lib, oligofrenianing eng ko’p tarqalgan turidir. Yordamchi maktablarga bolalarni saralash vaqtlarida asosan shu bolalar bilan ish olib boriladi. Yordamchi mакtab o’quvchilarining asosiy qismini ham debil bolalar tashkil qiladi. Bu bolalarni saralash vaqtida ham ma’lum qiyinchiliklarga duch kelinadi. Buning asosiy sababi shuki, aqliy nuqson u darajada chuqur emas. Bu bolalar umumlashtira oladilar. Bog’cha yoshi davrida predmetli, sodda mazmunli o’yinlarni tashkil qila oladilar. Maktab yoshi davrida esa ma’lum muayyan holatlarni baholay oladi, amaliy masalalarni yechishda to’g’ri ish tutadi. Nutqi asosan saqlangan bo’lib, mexanik xotirasi nisbatan yaxshi natijalar beradi. Bularning barchasi yordamchi mакtab dasturi hajmidagi materiallarni muvaffaqiyatli o’zlashtirishga yordam beradi. Debil bolalarda yetarli harakatchanlik, ish qobiliyatları saqlangan bo’ladi. Bu bolalarda nisbatan hissiyot-iroda sifatlari yaxshi saqlangani natijasida o’zlarini nazorat qilish imkoniyatlari mavjud. Yordamchi maktabning maxsus sharoitlar tufayli debil bolalar 9 yil davomida ommaviy maktablar boshlang’ich sinf hajmidagi o’quv materiallarini egallab, ma’lum ishlab chiqarish, kasb-hunar tayyorgarligini oladilar. Qator ijobiy xislatlarga qaramay, ma’lum darajada aqliy rivojlanmaganlik bu bolalarga ham xosdir. Bu bolalarning tafakkurlari ko’rgazma-obraz mazmunini kasb etadi. Tushunchalarning shakllanishi juda qiyin amalga oshadi. Umumlashtirish, taqqoslash jarayonlari juda qiyin kechadi. O’qilgan muayyan mazmunni qiyinchiliklar bilan o’zlashtiradilar. Fanlarni to’g’ri idok qila turib, ularning ichki bog’lanishlarini tushunmaydilar. Bunday xislatlar debil bolalar bilan mazmunli rasmlar, izchil voqealarni tavsiflash tajribalari o’tkazilganda yaqqol ko’rinadi. Hisoblash malakalarini ham qiyin shakllanadi. Sonlar, suratli arifmetik belgilari mohiyatini yetarli tushunib yetmaydilar. Ular sodda masalalarning shartlarini dastlabki tushuntirishda bila olmaydilar. Uni yechishda oldingi ishlagan yo’llarni qo’llaydilar. To’g’ri yozish malakalarini qiyinchilik bilan egallaydilar. Ularning nutqi sodda, grammatik tomoni buzilgan, tili chuchuk bo’lishi mumkin. So’zli tushuntirishlar muayyan holatlar bilan bog’liq bo’lmasa materialni juda qiyin idrok etadilar. Debil bolalarning yetarli aqliy taraqqiy etmaganligi ular shaxsining shakllanmaganligi bilan birga qo’shilib keladi. Bu xislat fikr yuritish va

qarashlarning mustaqil emasligida, bilimga intilishlarning yetishmasligida, tashabbuskorlikning bo’shligida, mehnat faoliyatlarida namoyon bo’ladi. Hissiyotiroda yetarli saqlangan holda, ayrim qayg’urish, xursand bo’lish vaqtlarida o’zlarini yetarli nuqsonsiz tengdoshlaridek tuta olmaydilar. Ayrim noziklashgan differensiyalashgan harakatlar, yuzlardagi ifodalilik yetishmaydi. Ba’zan nevrologik belgilar, tana displavizasi, endokrin buzilishlar uchraydi. O’z vaqtidagi to’g’ri ta’limtarbiya, mehnat malakalarini berish, aqliy nuqsonni murakkablashtiruvchi asab-ruhiy taassurotlarni yo’q qilish orqali debil bolalarni muvaffaqiyatli ravishda hayotga moslashtirish mumkin. Bu bolalar tashabbus, mustaqillik, bir ish turidan boshqa ish turiga tez o’tish talab etilmaydigan ish jarayonlarida yetarli unum bilan mehnat qiladilar. Bu bolalardagi amaliy intilishlarning borligi kelajakda jamiyatda o’z o’rinlariga ega bo’lishlarini bilishlari asosida mehnat malakalarini egallahshlariga yordam beradi.

**Imbetsillik-** debil darajadan birmuncha og’ir darajadir. Aqliy nuqsonning imbetsillik darajasida oligofreniyaning o’ziga xos xususiyatlari va namoyon bo’lishi birmuncha yuqori ko’rinadi. Birinchi navbatda, bu muayyan holatlarda umumlashtira olmaslik, hatto oddiy tushunchalarni hosil qila olmasligi bilan ajralib turadi. Imbetsil bolalarning mantiqiy fikrlash jarayonlari juda past darajada bo’ladi. O’qigan materialning mazmunini ilg’ab ololmaydilar. Yordamchi savollar orqaligina qisman mazmunini tushunishlari mumkin. Ko’rish va eshitish analizatorlari qabul qilgan axborotlarni tahlil qila olmasligi natijasida harflarni eslab qolishda qiynaladilar, o’xhash tovushlarni bir-birlariga aralashtirib yuboradilar. Kitobdagagi matnlarni mexanik ravishda o’qib, mazmunini tushuntira olmaydilar. Yordamchi savollar orqaligina qisman mazmunini tushunishlari mumkin. O’nggacha sanash, o’n ichida hisob kitob qilishlari mumkin. Lekin ularda murakkab son haqidagi tushunchalar yo’q. Ularning so’z boyligi kam bo’lib, nutqi ifodasiz, jumlalari qisqadir. Ular faoliyatlarida tashshabuskorlik, mustaqillikka intilish kabi shaxsiy xislatlar bo’lmaydi. O’zlarining mustaqqil ishlarini aqliy jihatdan tushuntirib bera olmaydilar. O’rgangan ish uslubi, malakalar o’zgartirilsa bu bolalar shoshib qoladilar. Shu sababli ularni hayotga moslashtirishda muntazam nazoratga, rahbarlikka va yordamga muhtojlik sezadilar. Ayrim ma’lumotlarni o’zlashtirish qobiliyatlarini ko’rish mumkin. Ba’zan sodda jumlalarni tushuna oladilar, narsalarning sodda, umumiyligi belgilariga qarab ularning farqlarini bilishlari mumkin. ularni o’qish, yozish va tartibli sanash elementlariga o’rgatish mumkin. Murakkablashmagan oligofreniyaning yengil va o’rta darajasidagi imbetsillar jismoniy mehnatning oddiy turlarini egallahshari mumkin. Imbetsillikning og’ir darajalarida ularni eng sodda ish turlariga ham o’rgatish mumkin emas. Imbetsillikda aqliy nuqson turli xilda namoyon bo’ladi. Imbetsillikning yengil turlarini debillikning og’ir turlaridan ajratish birmuncha qiyin diagnostik ishdir. Bunday hollarda, yaxshisi, yengil darajadagi imbetsillarni yordamchi maktablardagi diagnostic

sinflarga yuborish maqsadga muvofiqdir. Imbetsil darajadagi oligofrenlarda reflekslarning buzilishlari ham ko’zga tashlanishi mumkin. Ba’zan tutqanoqlar ham bo’lishi mumkin. Bosh miya tuzilishining displaziyasi-mikrosefal va gidrosefal holatlar uchraydi. Ularning tana tuzulishida jismoniy buzilishlar, serebral endokrin buzilishlar ko’zga tashlanadi. Oligofreniyaning eng og’ir darajasi

**Idiotlik** bo’lib, ular idroklarida qo’pol rivojlanmaganlik ko’rinadi. Atrof-muhitga bo’lgan munosabati mos emas. O’z shaxsini aniq bilmaydi. Tafakkuri esa deyarli yo’q. Ular o’zlariga qarab gapirilgan gapdan ko’ra mimika va yuz harakatlarini nisbatan ilg’ab oladilar. Idiotlar nutqi aqliy nuqson chuqurligiga bog’liq. Ular nutqi ma’nosiz tovushlardan, ba’zan alohida so’zlar yig’indisidan iborat bo’lishi mumkin. Hissiyotlari haddan tashqari sodda bo’lib, fiziologik xohishlar bilan bog’liqdir. O’zlarining xursandchiliklarini harakat, qichqirish, mimika harakatlari bilan namoyon etsalar, xafagarchiliklarini esa qaysarlik, o’z tana organlarini jarohatlash bilan ko’rsatishlari mumkin. Idiotlarning nisbatan yengilroq turlarida ijtimoiy hislarning saqlanganligini ko’rish mumkin. Ularning umumiy kayfiyatları goh befarq, goh bo’shanglik va xursandchilik bilan ifodalanishi mumkin. Harakat tizimlarining haddan tashqari kambag’alligi natijasida hatto yurish va tik turish malakalari ham buzilgan bo’ladi. O’zlariga xizmat qilish malakalari shakllanmagan va xulqlari esa asosan ularning talablarini qondirish bilan bog’liq. Ba’zilari bir xildagi stereotip harakat qiladilar. Ritmik ravishda tana harakati, bir xildagi bosh, bo’g’inlar harakatini kuzatish mumkin. Idiot darajadagi aqliy nuqsonlilikda turli nuqsonlar yoki tutqanoqlar, ba’zan jismoniy rivojlanishida qo’pol nuqsonlar-teri nuqsonlari, ichki organ kamchiliklari, endokrin va modda almashinuvining buzilishini ko’rish mumkin. Aqli zaiflikka o’xshash holatlar ko’pincha, markaziy nerv tizimidagi o’zgarishlar bilan bog’liqdir. Bu o’zgarishlar alohida nerv-psixologik sistemasining rivojlanishi va faoliyatiga, shuningdek bir butun organizmning holati va rivojlanishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Aqli zaiflik o’xshashlikka olib keladigan holatlarning sabablari turlichadir. Markaziy nerv sistemasining buzilishlarining og’irligi va lokalizatsiyasi bo’yicha ham turlicha bo’lishi mumkin. Yordamchi maktablarni komplekslashda aqli zaiflikni unga o’xshash holatlardan ajratish bilan baholangan xuddi shu masalalar eng ko’p qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Aqli zaif o’quvchilarning tafakkur, tasavvur nutqi, fikrlash qobiliyatini o’stirishda yordamchi mакtabda ko’rgazmali qurollardan keng foydalaniladi. Ko’rlar maktabida bu borada ko’proq nutq, so’zga asoslangan holda ish tutilsa, aqli zaif ko’r bolalar bilan boshqacha ishlarni uyushtirish lozim bo’ladi, ayniqsa ilk yoshdagи bolalarda. Hozirgi kunda ular uchun differensial-diagnostik mezonlar ishlab chiqilgan. Aqli zaiflikning og’ir shaklidagi bolalar bilan ko’rgazmali didaktik materiallar asosida rivojlantiruvchi ta’lim qonuniyatlarini hisobga olgan holda eksperimental ta’lim berish, shuni ishonchli qilib ko’rsatdiki, bu bolalarning aqliy rivojlanishini ham son jihatdan, ham sifat jihatdan o’stirish muhim. Xulosa qilib shuni

aytish kerakki, rivojlanishida muammolar bo’lgan, rivojlanishi orqada qolgan bolalarni o’rganish ular orasida aqli zaiflikka xos bo’lgan ba’zi tomonlar mavjudligini ko’rsatadi. Bunday bolalar aqli zaiflarga o’xshasa ham, haqiqatan bunday bo’lmaydi. Aqli zaiflikning mohiyatini tushunish ham ilmiy, ham aqliy jihatdan muhim bo’lib ushbu holat to’g’ri tashxis qilishga yordam beradi va yordamchi maktablarni komplekslashdagi xatolarni oldini oladi. Aqli zaiflik-oddiygina qobiliyatlarni ya’ni aqlning kamligi emas, bu shaxsning barcha tomonlarining sifatini o’zgarishidir. Ushbu zaiflikda bolada asosan intellekt buziladi, shu bilan birga hissiy, irodaviy doirasida, xulqida sezilarli nuqsonlar buzilishlar kuzatiladi. Nerv jarayonlari muvozanati bilish faoliyatining buzilganligi natijasida aqli zaiflikning yengil darajasidagi bolalarning hulq-atvorida ham bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Qo’zg’alish va tormozlanish o’rtasidagi muvozanat buzilganligi tufayli ayrim oligofren bolalar haddan tashqari jonsarak, serharakat, sho’x bo’ladilar va tormozlanish jarayoni ustun turgan bolalarda esa aksincha, passivlik, bo’shanglik, beparvolik, hech narsaga qiziqmaslik kuzatiladi. Aqli zaif bolalar vaziyatni yetarli darajada anglay olmaydilar, hatti-harakatlarini vaziyatga qarab o’zgartirolmaydilar. Ularda o’z-o’ziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat sust bo’ladi.

Ko’rsatib o’tilgan bir qator kamchiliklarga qaramay, aqli zaif bolalar bilan to’g’ri tashkil etilgan maxsus ta’lim-tarbiya ishlari natijasida korreksion pedagoglar ularni mustaqil hayotga tayyorlash, kasb hunarga o’rgatish borasida katta yutuqlarga erishmoqdalar. Aqli zaiflikning og’ir shaklidagi bolalarning aqliy ojizligining psixologik mexanizmlarini o’rganishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar o’tkazilgan. Ular uchun psixologik sustlik, vazifalarni qabul qila olmaslikning xosligi ularda vazifalarni bajarishning dastlabki bosqichining qiyin kechishi ya’ni aniqlash jarayoni, zarur belgilarni ajratib olish aniqlangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maxsus pedagogika: M.U.Xamidova.-T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2018.
2. Maxsus pedagogika: Oligofrenopedagogika P.M.Po’latova.- Т.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005.
3. Maxsus pedagogika: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2004.
4. [www.https://lex.uz](https://lex.uz)
5. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. Экономика и социум, (3-2), 12-14.
6. кизи Ахмедова, Д. С., & қизи Камолова, А. О. (2022). ЎСМИРЛАРДА МЕЪЁРДАН ХУЛҚИЙ ОФИШ ХОЛАТЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА ХУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ. Евразийский журнал академических исследований, 2(3), 413-416.

7. Ikromaliyevna, K. N., Muhammedovich, B. M., & Dadamirzayevna, O. D. (2019). Eastern thinkers about the phenomena of self-awareness. *Journal of Critical Reviews*, 7(2), 2020.
8. Ориббоева, Д. Д. (2019). THE INFLUENCE OF SOCIAL COMPETENS ON PROFESSIONAL CHOICE. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(9), 256-261.
9. Oribboyeva, D. D., & Ikromova, D. (2024). Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar psixologiyasining o’ziga xosligi, aqli zaiflik turlari. *Science and Education*, 5(1), 287-291.
10. Oribboyeva, D. D. (2020). SOCIAL COMPETENCE AS AN INTEGRAL PART OF THE TEACHER'S PROFESSIONAL MATURITY. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(11), 347-353.
11. Azimova, O. A. Q. (2023). Bo’lajak o’qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarida kasbiy mahorati. *Science and Education*, 4(6), 718-722.